



YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTINING BOSH OMILI

Qaxxorov Shoxruz Oybek o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyati akademik litseyi o‘quvchisi

Telefon: +998 (94) 228-95-65

E-mail: qaxxorovshaxrusbek@gail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada joriy yilning 30-aprel sanasida referendum orqali amaliyotga joriy etilgan yangi konstitutsiyamiz va unga kiritilgan o‘zgartirishlarning xalqimiz hayotida tutgan o‘rni, eski va yangi konstitutsiya o‘rtasidagi asosiy farqlar, yangi konstitutsiyaning fuqarolik jamiyati taraqqiyotining bosh omili ekanligi hamda fuqorolarimiz hayotidagi ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, islohotlar, fuqarolik jamiyati, inson qadri, huquqiy davlat, hokimiyat, inson huquqlari, adolatlilik, demokratiya.

Аннотация. В этой статье мы поговорим о роли нашей новой конституции, которая была введена в действие посредством референдума 30 апреля этого года, и внесенных в нее поправок в жизни нашего народа, основных различиях между старой и новой конституцией, тот факт, что новая конституция является главным фактором развития гражданского общества и ее значения в жизни наших граждан.

Ключевые слова: Конституция, реформы, гражданское общество, человеческое достоинство, правовая страна, власть, права человека, справедливость, демократия.

Annotation. In this article, we will talk about the role of our new constitution, which was put into practice through a referendum on April 30 of this year, and its amendments in the life of our people, the main differences between the old and new constitution, the fact that the new constitution is the main factor in the development of civil society and its importance in the lives of our citizens.

Key words: Constitution, reforms, civil society, human dignity, legal country, power, human rights, justice, democracy.

KIRISH

Bizga ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023 yilning 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Referendumida umumxalq ovoz berish yo‘li orqali qabul qilindi hamda 2023 yilning 1-may kundan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuchga kirdi. Ushbu kundan buyon birinchi marta Konstitutsiyamizga mamlakatning uzoq o'n yilliklardagi taraqqiyotini belgilab beruvchi o'zgartirishlar kiritildi va bu o'zgarishlar amalga joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi.



Konstitutsiya O'zbekistonning demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat sifatida yanada rivojlanishiga yangi turtki beradigan qomusnomadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat "inson qadri"ni yuksaltiribgina qolmay, balki davlat va jamiyat hayotini "inson-jamiyat-davlat" degan tizimga asoslangan yangi va zamonaviy tarzda boshqarish imkonini ham yaratdi. Demokratik jamiyatda qabul qilinayotgan qonunlar, adolatli bo'lishi va o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi darkor. Ushbu qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi [2].

Mustaqil O'zbekistonimiz Konstitutsiyasi rivojlangan, demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga tayangan holda yaratildi. Bizning bosh qomusimiz Birlashgan millatlar tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalarga to'la asoslangan konstitutsiyadir [3]. Konstitutsiyamizning har bir bob va moddasida bir qator huquqiy normalar mustahkamlangan, bu normalarda bizning kundalik yurish-turishimizdan tortib, siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklarimiz, burchlarimiz, davlat boshqaruvi va nazorat idoralari, moliya va kredit, mudofaa va xavfsizlik masalalari o'z aksini topgan. Bugun demokratik davlat, adolatli jamiyat qurishda, barcha salohiyatimizni ishga solishda, iqtisodiyotimizni rivojlantirishda, ma'naviyatimizni yuksaltirishda, Vatanimizni obod qilishda, tinch va farovon hayot sharoitining yaratilishida, xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik faoliyatining namoyon bo'lishida asosiy qonunimiz, bosh qomusimiz - Konstitutsiyamizning o'rni beqiyosdir.

Fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liqdir. O'zbekistonda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar butun jahonning diqqat markazida turibdi. Bunga sabab davlatimizning mintaqada barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishda eng katta tayanch ekanligidir. Demokratiyaning avvalgi mazmuni ham o'zgarib bormoqda. Avval demokratiya jamiyat siyosiy tizimining bir qismi deb qaralar edi. Endi esa demokratiya O'zbekistonda yashovchi barcha tabaqa, guruh va xalq ommasining ishtirokini ta'minlaydigan davlat boshqaruvining asosiy omiliga aylandi. Jamiyatning ijtimoiy qatlamlari boshqaruvchilar bo'lib, keng xalq ommasi va barcha ijtimoiy qatlamlar unda faol ishtirok etmoqda. Xalq - davlat hokimiyatining manbayiga aylandi [5]. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 2-moddasida shunday deyiladi: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar» [1].

Haqiqatdan ham bularning barchasi fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimizni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish hamda jamiyat va



davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta'sirchan rolini oshirishda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Zero, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqqligini ta'minlash, boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishda aynan fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni beqiyos hisoblanadi.

Konstitutsiyamizga ushbu yo'nalishda kiritilgan yangilanishlar fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimiz hayotidagi rolini yanada oshirish bundan buyon ham e'tibor markazida bo'lishidan dalolat beradi. Bu fikrimizni bugungi kunda birgina mahalla tizimida boshlangan yangi islohotlar to'liqligini ham yaqqol tasdiqlab turibdi. Jumladan:

- mahalla fuqarolar yig'iniga o'zi joylashgan hududdagi xalq deputatlari mahalliy kengashlari sessiyalariga takliflar kiritish, kengash qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish huquqi berildi;

- fuqarolar orasida e'tirozlarga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish uchun mahalla raisi tomonidan muhokamalar o'tkazish, har oyda mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining axborotlarini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

- hududlarda "mahalla nazorati" va "mahalla raisi so'rovi" institutlari joriy etildi;

- shu yil yurtimiz tarixida birinchi marta tajriba tariqasida har bir hududdagi bitta tumanda "mahalla byudjeti" tizimi o'rnatilib, mol-mulk va yer solig'ining bir qismini mahallalarning o'zida qoldirish ko'zda tutildi.

Bu kabi amaliyot mahallalar hududidagi muammolar bevosita ular tomonidan mustaqil ravishda hal etilishida juda qo'l kelishi tayin hol. Bu esa fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridan biridir. Konstitutsiyada bu masalalar ham o'z ifodasini topgan bo'lib, uning 36-moddasiga asosan «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi» [1].

Shuni ta'kidlash joizki, asosiy qonunimizning 15-moddasida qayd etilishicha, «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar» [1]. Albatta, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo



etishning asosiy sharti qonun ustuvorligi ekan, mamlakatimizda bu masalaga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tibor qaratilmoqda.

Konstitutsiyamizdagi mavjud qonunlarga bo‘ysunish bozor munosabatlariga o‘tishning barcha amal qilishi kerak bo‘lgan eng muhim prinsiplaridan biridir. Huquqiy demokratik davlatning o‘ziga xos xususiyati ham shundan iboratdir. Qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilgan holda unga amal qilinmas ekan, huquqiy demokratik davlat qurishni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytishimiz lozimki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. Buning yorqin dalili sifatida fuqarolik jamiyatining barcha mezonlari asosiy qomusimizda o‘z aksini topganini keltirish mumkin. Undagi normalar asosida rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat hayotida muhim rol o‘ynamoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki, ular tomonidan inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan samarali ishlariga ham bevosita Konstitutsiya va u asosida qabul qilingan qonunlar huquqiy asos bo‘lmoqda [4]. Bu yangi tashabbuslarning ijobati, albatta, fuqarolik jamiyatini demokratik davlat qurish yo‘lidagi tayanch ustunga aylantiradi hamda bu orqali chinakam xalqchil tuzilma paydo bo‘ladi. Binobarin, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mamlakatimiz hayotining barcha sohalaridagi qamrovdor islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. - Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. Sh. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston: demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”. Toshkent-2021 yil.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
4. Muminov Abdulxay Rashidovich, Tillabaev Mirzatillo Alisherovich Inson huquqlari: darslik /Muminov A.R., Tillabaev M.A. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. - 2-nashr. –T.: “Adolat” nashriyoti, 2013. – 402 bet.
5. G‘ulom MIRZO. Yangilangan Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati taraqqiyoti. 2023 yil.